

O'SMIRLARDA AGRESSIYANING VUJUDGA KELISH ASOSLARI

Omonova Muxlisa Do'snazar qizi

Alfraganus universiteti,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası
dotsent v.b., pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
muxlisa.alfraganus@gmail.com

Sotvoldiyev Shoxro'zbek Nigmatulla o'g'li

Alfraganus universiteti
"Pedagogika va psixologiya" yo'nalishi magistranti,

Chet el psixologlari tomonidan o'smirlarning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida talqin qilinadi. Insonning ruhiy dunyosini tubdan qayta qurish, shaxsni shakllantirishni insonparvarlashtirish harakati boshlangan hozirgi kunda o'smirlar taqdiri masalasi ham g'oyat jiddiy tus oldi. O'smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotga beriluvchanligi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta'sirlarga beriluvchan o'smir o'g'il-qizlarga alohida e'tibor berish zarur.

Amerikalik psixolog R.Kulen o'smirlik davri haqidagi biogenetik nazariyani qattiq tanqid qilib, o'smirlik davri ijtimoiy-axloqiy kategoriyadir, degan g'oyani ilgari suradi. R.Kulenning fikricha, o'smirlik davrida uchta asosiy ijtimoiy-axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, ular emansipatsiya (kattalar ta'siridan qutulish) va mustaqillikka erishish, hayot yo'li va kasb-hunar tanlashga jiddiy munosabatda bo'lish, zarur ijtimoiy-axloqiy normalarni o'zlashtirishdan iboratdir. Uning fikricha, bola yuqoridagi muammolarga e'tibor bermas ekan, o'smirlik davri qancha bo'lishidan qat'i nazar, u bolaligicha qolaveradi. R.Kulen o'z nazariyasida biologik omillarni ham, o'smirlik davridagi o'sishning psixologik xususiyatlarini ham hisobga olmaydi, aksincha, ularni batamom inkor qiladi [1].

Psixologlarning fikricha, o'smirlarga real ijtimoiy turmush shart-sharoitlari va shaxs faoliyatining mahsuli deb qarash mumkin emas, chunki o'sishning biologik va psixologik qonuniyatlarini inkor qilishga haqqimiz yo'q. Shuningdek, o'smirlik davrining muayyan hech o'zgarmas xususiyati va xarakteristikasi mavjud emas. O'smirlar o'rtasidagi o'ziga xos tipologik farqlarni ijtimoiy omillarning ta'siri bilan, ta'lim va tarbiya sharoitlarining xususiyatlari bilan izohlash mumkin. Aynan shu davrda agressiv holatlar kuchayib boradi.

Agressiya adovatli tajovuzkorlik va barbod qiluvchi (munosabatlarni), buzuvchi xatti-harakat sifatida. R.Beron va D. Richardson quyidagicha ta'riflashga harakat qiladilar: Agressiya – bu boshqa tirik mavjudotga zarar yetkazish yoki haqoratlashni maqsad qilib qo'ygan, bundan boshqa munosabatni istamaydigan xulq-atvorlarning har qanday shakli [2].

Bu mualliflar fikriga ko'ra:

- agressiya albatta atayin qilinadigan, maqsadga yo'naltirilgan, qurbonga zarar yetkazishni anglatadi;
- agressiya xususiyatida faqatgina tirik mavjudotga zarar yoki shikast yetkazishni o'ylovchi xulq-atvor ko'riladi;
- qurbon o'ziga bo'lgan bunday munosabatdan qochish kabi motivga ega bo'lishi kerak.

Psixologlardan bu fikrni T.G.Rumyansev va I.B.Boyka farqlaydi. Ular agressiyani ijtimoiy ta'sirlar so'ngida paydo bo'ladigan, biroq agressiv xulq ikkita jihatdan: qurbonni nobud qiluvchi oqibatlariga olib keluvchi o'ringa egaligi hamda xulq-atvor me'yorlari buzilishida hosil bo'ladigan ijtimoiy xulq deb ko'rib chiqadilar [3].

Umuman olganda, o'smir shaxsining rivojlanishi uchun tajovuzkorlik ko'rinishigina emas, uning natijasi va atrofdagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Qachonki zo'ravonlik e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa afzalliklar bergan holatda bolalar va o'smirlarda katta ehtimol bilan kuch madaniyatiga asoslangan ijtimoiy yo'naltirilgan va ko'p odamlar (masalan, jinoiy guruhlar) asosida tuzilgan xulq shakllanadi. Atrofdagilarning tajovuzni kuch bilan bostirishga urinishlari ko'p hollarda qarama-qarshi kutilgan samaraga olib keladi.

Hozirgi kunda insonlarda kuzatilayotgan agressiv xatti-harakatlarni namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatdagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi kun talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Андреева Г.М. Социальная психология. М. 2004.
2. Агрессия у детей и подростков: учеб. пособие / под ред. Н.М. Платоновой. - СПб.: Речь, 2004. - 336 с.
3. Зимелева З.А. Психологические условия возникновения и коррекции агрессивного поведения подростков. Дис. ... канд. психол. наук. – М., 2002. 149 б.